

O‘SMIRLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH – JAMIYATNING DOLZARB MASALASI

Sherboboyev Aslbek

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o‘quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi jamiyatning dolzarb muammosi sifatida tahlil qilingan. Maqolada huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, oilaviy tarbiya hamda ma’naviy tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagoglar, psixologlar va davlat dasturlarining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Xulosa sifatida, huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi muhim ekani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, o‘smirlar, profilaktika, huquqiy ong, tarbiya, oila, yoshlar siyosati, ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviyat, pedagogika, psixologiya, qonunchilik, jamiyat.

Аннотация. В статье анализируется проблема профилактики правонарушений среди подростков как актуальная проблема общества. Подчеркивается важность формирования правосознания и культуры, семейного воспитания и духовного развития. Также обозначена роль педагогов, психологов и государственных программ. В заключении подчеркивается важность взаимодействия семьи, образовательных учреждений и общества для снижения правонарушений.

Ключевые слова: правонарушения, подростки, профилактика, правосознание, воспитание, семья, молодежная политика, социальная ответственность, духовность, педагогика, психология, законодательство, общество.

Annotation. This article analyzes the issue of preventing delinquency among adolescents as an urgent problem of society. The article highlights the importance of forming legal awareness and culture, family education and spiritual upbringing. The role of educators, psychologists and state programs is also indicated. In conclusion, it is emphasized that the cooperation of the family, educational institution and society is important for reducing delinquency.

Key words: delinquency, adolescents, prevention, legal awareness, upbringing, family, youth policy, social responsibility, spirituality, pedagogy, psychology, legislation, society.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy faoligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay, ayrim o‘smirlar tomonidan huquqbuzarlik holatlarining sodir etishi jamiyatimizning tashvishiga solmoqda. Ushbu muammolarni oldini olish, ularni bartaraf etish va profilatktikasini kuchaytirish barchamizning vazifamizdir.

ASOSIY QISM

Huquqbuzarlik – bu shaxsning qonun bilan taqiqlangan harakat yoki

harakatsizligidir. O'smirlar orasida bunday holatlarning kuzatilishi turli sabablarga borib taqaladi. Eng avvalo, bu oiladagi tarbiya, nazoratning yetishmasligi, atrof-muhitning salbiy ta'siri, bo'sh samarasiz o'tishi hamda internetdagi zararli axborotlarga beparvolik bilan munosabatda bo'lish natijasidir. Yoshlarning bunday holatlarga berilib ketmasligi uchun, avvalo, ularning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirish zarur. Bu borada o'quv maskanlarida o'tkazilayotgan huquqiy soatlar, profilaktik tadbirlar, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan uchrashuvlar, «Huquq bilimdoni» tanlovlari hamda «Yoshlar daftari» doirasida olib borilyotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faoligini oshirish, ularni sport, san'at, madaniyat, texnologiya va ixtirochilik sohalariga keng jalb etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin. Chunki foydali ish bilan band bo'lgan o'smirda salbiy yo'nalishdagi xatti-harakatlarga vaqt ham, qiziqish ham qolmaydi.

Oilada esa ota-onaning o'rnini beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga ko'ra har bir ota-ona farzandi voga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Ya'ni o'z farzandlarining do'stlari, mashg'ulotlari, internetdagi faoliyati bilan muntazam qiziqib borish lozim. Farzand bilan samimiy suhbatlar o'tkazish, unga ishonch bildirish, muammolarni hal qilish o'smirda to'g'ri yo'lga yo'naltirish katta yordam beradi.

Pedagog va psixologlarning ham o'rnini nihoyatda muhim. O'RQ-901-son Pedagogning maqomi to'g'risida 7-moddasiga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining ichki dunyosiga e'tibor berish, uning qiziqishlari, dardlari va orzularini tushunishi kerak bo'lib va bu o'qituvchilik mahoratining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Davlat miqyosida esa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ko'plab huquqiy hujjatlar, qarorlar va dasturlar ishlab chiqilgan Misol uchun:

- O'RQ-371-son Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida;
- O'RQ-263-son Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlikni oldini olish to'g'risida;
- O'RQ-407-son Ichki ishlar organlari to'g'risida;
- «Yoshlar–kelajagimiz» davlat dasturi;
- «Yoshlar ishlari agentligi» faoliyati, turli hududlarda tashkil etilgan «Profilaktika kengashlari» ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Ta'kidlab o'tish joizki, voyaga yetmagan fuqarolarni jinoiy javobgarlikka tortish yoshi, PF-6275-son “Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qonun loyihasi ko'rib chiqilib, ma'qullanishi yuzasidan eng kichik jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yosh etib belgilandi.

BMTning «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi»ning 40-moddasida ta'kidlanganidek, huquqbuzarlik sodir etgan bola ham insoniy sha'nini saqlovchi, adolatli va yoshiga mos tarzda muomala qilish huquqiga ega. Bu modda shuni ko'rsatadiki, jazolash emas, balki tarbiyalash va to'g'ri yo'lga yo'naltirish asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Shu bilan birga BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan «Riyod tamoyillari» voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishni davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, o'smirlar bilan ishlashda jazolash emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur.

O'zbekiston ham ushbu xalqaro tamoyillar ruhiga mos ravishda yoshlar siyosatini, huquqiy tarbiyani va profilaktika tizimini rivojlantirmoqda. Bu esa mamlakatimizning xalqaro huquqiy tamoyillar bilan hamohang siyosat yuritayotganini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun nafaqat qonunlar, balki ma'naviy tarbiya ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar qalbida vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish orqali biz jamiyatda huquqbuzarlik ildizlarini keskin kamaytira olamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish – bu faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyat, ota-ona, pedagog va eng avvalo, o'smirlarning o'zlarining ham burchidir. Har bir inson qonunlarga hurmat bilan qarasa, o'z huquq va burchlarini bilsa, mamlakatimiz kelajagi yanada porloq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A., Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari, O'zbekiston NMIU, 2018, 245 b.
2. Vygotskiy L.S., Pedagogik psixologiya asoslari, Pedagogika nashriyoti, 2006, 320 b.
3. Piaje J., Insonning aqliy rivojlanish nazariyasi, Fan nashriyoti, 2010, 278 b.
4. Qodirov B., Huquqiy tarbiya va yoshlar huquqiy madaniyati, Adolat nashriyoti, 2020, 210 b.
5. Rasulov A., Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishning ijtimoiy asoslari, Iqtisodiyot va huquq nashriyoti, 2021, 195 b.
6. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). Kriminalistik huquq va jinoyatlarning oldini olish. International innovation and researches, 1(3), 53-55.
7. Sharipova N., Huquqbuzarliklarning psixologik omillari va ularni bartaraf etish yo'llari, O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019, 230 b.
8. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). O'zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish. Международный журнал теории новейших научных исследований, 2(10), 173-176.
9. Jumayeva, M. (2024). Organizing primary education process on the base of international experiences and developing critical and creative thinking. Science and innovation, 3(B4), 73-75.
10. Bekzodovna, J. M. (2022). Oliy ta'limda innovatsion usul va vositalar.